

## LOVIYA BIOLOGIYASI VA EKISH MEYYORI

Tadjiyev K.M.

q.x.f.d., dotsent

Salomova Rayxona Asqar qizi

Talaba

**Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15194608>

Markaziy Osiyo aholisi loviyani juda qadimdan oziq-ovqat uchun ishlatib kelgan. Loviya suyuq, ovqatlarga mastava, go'ja, ugra oshlarga ishlatiladi. Loviya solinib butqa va shirin kulchalar tayyorlanadi. Loviya donidan un tayyorlab javdar yoki bugdoy uniga qo'shib non tayyorlash mumkin. Toza pishib yetilmagan dukkaklardan konserva sanoati foydalanadi. Loviya juda kaloriyali oziq-ovqat maxsuloti xisoblanadi, 1 kg loviya urug'ida 3300 kaloriya bor. Loviyadan faqatgina oziq-ovqat sanoatida emas, balki yem-xashak sanoatida xam foydalanish mumkin. Ko'p miqdorda pichan ko'k poya beradi. Loviyaning ko'k poyasi tarkibida oqsil miqdori ko'p. Loviyadan ko'kat o'git sifatida foydalanilganda tuproq unumdorligi ortadi, ayniqsa fizik xossalari o'zgaradi, og'ir tuproqlar yengil tuproqlarga aylansa, qumoq tuproqlar zichlashadi. Loviya o'simligining o'suv davri qisqa bo'lgani bilan serxosil o'simlik hisoblanadi.

Loviya – dukkaklilar oilasiga mansub ko'p yillik don ekini. Ildizi o'q ildiz, yaxshi rivojlanadi, tuproqqa 1,5-2 m chuqurlikkacha kirib boradi. Ildizida tunganaklar rivojlanadi. Poyasi o'tsimon shoxlanadi, ayrim turlari chirmashib, 3-4 m. gacha yetadi. Mevasi dukkak, rangi och pushti yoki to'q jigarrang, qora. Dukkagida 6-12 ta urug' bo'ladi. Urug'i buyraksimon, rangi oq, sariq, pushti.

Loviya issiqsevar o'simlik, urug'i 8-10°S da unib chiqadi. Maysasi 0,5-1°S sovuqda nobud bo'ladi. Loviya namsevar, unumdor tuproq sharoitlariga talabchan. O'suv davri 75-120 kunning tashkil etadi. Loviya yormasi oqsilga boy, yuqori kaloriyaga ega bo'lib, doni tarkibida oqsil 20-31%, moy 0,7-3,6%, kraxmal 50%, kletchatka 2,3-7,1% tashkil etadi. Poyasi chorva mollari uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi. Hosildorligi gektar hisobida 2,5-4,0 tonnaga olinadi. Ildizida tunganaklar rivojlanadi.

loviyaning ildizi o'q ildiz, 1,5-2 m chuqurlikka kirib boradi. ildizlarda tunganak bakteriyalar uchraydi. Ildizida yon ildizchalar ham kuchli rivojlangan, ildizning asosiy massasi tuproqning 40 sm chuqurligida joylashadi.

Loviyaning gullari shingil holatida bo'lib, bir qulqiqa 2 tadan 12 tagacha gul joylashadi. Gullari yirik oq yoki binafsha rangda bo'ladi. Barglari uchtalik bo'ladi.

Asosiy o'g'it sifatida dukkakli don ekinlariga fosfor va kaliy solinadi. Ular o'simliklarning rivojlanishi yaxshilash bilan birga, azot to'plovchi bakteriyalar faoliyatini kuchaytiradi. Ba'zi dukkakli don ekinlari masalan, lyupin, ko'k no'xat tuproqdagi qiyin eriydigan fosfatlar tarkibidagi fosforni yaxshi o'zlashtirishni hisobga olib, ularga fosforit kukunini solish mumkin. Loviya kulga talabchan bo'lib gektariga 4-6 s kul solinsa hosildorlik sezilarli darajada oshadi.

Loviya urug'larini ekishdan oldin fosforli hamda organik o'gitlar bilan o'gitlanib tuproqlar sifatli haydalib tayyorlanishi lozim. Tuproq harorati +12-14 °S bo'lganda urug'larni 10-15 santimetr oralig'ida, 3-5 sm chuqurlikda, qatorlari 60-70 sm kenglikda jo'yaklar olinib 60x20 yoki 60x15 sm, 70x20 yoki 70x15 sm sxemalarda ekiladi. Bunda bir metr masofaga 5-6 donadan urug' ekiladi.

Loviya urug'larini ekishdan oldin iliq suvda 6-12 soat davomida ivitish yoki nitrolin bilan ishlov berilib ekilsa nihollarni unib chiqishini tezlashtiradi. 1 gektar maydonga 40-50 kg meyyorlarda ekiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, loviya urug'lari tuproq harorati +12-14 °S bo'lganda, sifatli tayyorlangan maydonlarga qatororalari 60-70 sm kenglikda jo'yaklar olinib o'simliklar oralig'i 10-15 sm da, 3-5 sm chuqurlikda, 60x20 yoki 60x15 sm, 70x20 yoki 70x15 sm sxemalarda ekish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:**

1. Отабоева Х., Умаров З., Бўриев Х., Дўстмуродова С., Қурбонов Ф., Алимов А., Раҳимов Ф., Массино И., Қодирхўжаев О. Ўсимликшунослик. Дарслик. Тошкент “Меҳнат”. 2000
2. Yormatova D. Дала экинлари биологияси ва етиштириш технологияси. Darslik, Toshkent, 2000
3. Tadjiyev , K., & Salomova , R. (2025). Loviya (PHASEOLUS) biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. International Conference On Higher Education Teaching, 3(2), 18–20. Retrieved from <https://aidlix.org/index.php/de/article/view/1069>
4. Toshpo'latova H. Loviya (PHASEOLUS L) turkum vakillarining botanik belgilari va ahamiyati// “Perspectives for the integration of natural sciences” Republican scientific and practical conference november 22, 2024. Pp. 316-317
5. Ловия экиш ва парваришlash. <https://agronet.uz/loviya-ekish-va-parvarishlash/>